

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLARNI BARTATAF ETISH YO'LLARI

Ilesova Lazzat Asan kizi
CHDPU maktabgacha ta'lim fakulteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga Sharq didaktikasi asosida tarbiya berish, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish yo'llari, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish haqida to'liq fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasasi, inklyuziv ta'lim masalalari, Sharq didaktikasi, tarbiya normalari.

Kirish:

Ta'lim tizimidagi zamonaviy vaziyat uning barcha tarkibiy qismlarida, jumladan, ta'lim to'g'risidagi qonun, ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi tamoyillari, ta'lim muhitini tashkil qilish tamoyillari va boshqalarni modernizatsiya qilish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning yo'nalishlaridan biri bolalarning ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini, ularning xususiyatlari, imkoniyatlari, manfaatlarini hisobga olishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim tamoyillarini amalga oshirishdir. Shu munosabat bilan, ish usullari, shakllari va texnologiyalarini o'zgartirish zarur bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Inklyuziv ta'lim masalalariga yuqori e'tibor berilmoqda, nogiron bolalar masalasini hal etishda mamlakatning jiddiyligi va qiziqishini, ularning erta moslashuvini, ushbu toifadagi yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni aks ettiradi. Inklyuziv ta'lim-bu bolalar bog'chasi va maktabning barcha bolalarga ta'lim berish imkoniyatidir. Bu asosiy inson huquqi sifatida ta'limni tushunishga asoslangan.

Bolalar uchun bolalar bog'chasining ta'lim jarayoniga va uning jamoasiga muvaffaqiyatli kiritilishi uchun ular kerakli darajada qo'llab-quvvatlashlari joiz. Buning uchun bolalar nima qila olishlarini emas, balki nima qilishlari mumkinligini ko'rish va tushunish zarur. O'qituvchilar, yordamchi o'qituvchilar va hamma yordamchi xodimlar oddiy guruhlarda birgalikda o'qiyotgan bo'lsa, bolalar bir xil ta'lim maqsadlariga ega bo'lishlari shart emasligini tushunishlari va qabul qilishlari lozim. Bularning hammasi guruhlarda doimiy ishlarning tuzilishini o'zgartiradi. O'qituvchilarga yuqori mas'uliyat yuklaydi.

Bolalarning qobiliyatlari juda ko'p va turli xil bo'lishi mumkin, asosan yoshlarning kompensatsion imkoniyatlariga, har bir bolaning eng samarali usulini va qanday qilib moslashishini bilish, bolaning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitish usullarini o'zgartirish kerak. O'qituvchi kitoblar, lenta yozuvlari va amaliy materiallar kabi turli xil ta'lim vositalaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchi, xuddi bola bilan birga o'rganishi, u bilan hamkorlik qilishi va unga faqat ma'ruzalar o'qimasligi zarur. Bola bilan interaktiv muloqot qilish joiz. Ushbu muloqot bolaga hissiy, qiziqarli bo'lishi kerak, ko'plab muammoli vaziyatlarni va ularni hal qilish

yo'llarini o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan, ish usullari, shakllari va texnologiyalarini o'zgartirish yuqori ahamiyatga ega.

Natijalar:

Mustaqil yurtimizda jahon andozalari yordamida o'sib kelayotgan yosh avlodni har taraflama erkin fikrlaydigan, mustaqil shaxs sifatida tarbiyalash masalasiga yuqori e'tibor berib qaratilmoqda. Ushbu maqsad va vazifalar maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limga o'tishi doimo uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida asosan ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan tarzda yoshlarni har taraflama intellektual, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratishdan iborat. Bugungi bog'cha bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab qilinadi.

Muhokama:

Ma'naviy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina yoshlarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda, ta'lim berish orqali kattalar mehnati bilan tanishtiriladi.

Ma'naviy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsning axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishini talab etiladigan murakkab jarayondir.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirish, shaxs ma'naviy barkamolligining asosini tashkil qilib, bunda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi axloqiy sifatlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi, pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish masalaning amaliy yechimini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Xasanboeva "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" T.,2006
2. P.YUsupova. Maktabgacha pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2001.
3. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm- ziyo. 2006.
5. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi, fan va texnologiya. -T.: 2008.